



olar ekan. Shuning uchun maktabda o'quv laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, frontal va mustaqil ishlar, ekskursiyalar va boshqalar o'tkaziladi.

Endi, o'quv yili boshida har bir fan o'qituvchisi o'quv rejadan tashqari o'quv yili davomida fanga tegishli o'tkaziladigan sinfdan tashqari tadbirlar rejasini ishlab chiqishi zarur. Agarda har oyda bittadan fanga tegishli tadbir tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi o'quv fanning katta bir bo'limi yoki ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mavzularni tanlab oladi. Tadbirni ta'sirchan va yuqori saviyada o'tkazish uchun uning senariysiga alohida e'tibor beriladi. Sinf o'quvchilarining o'zlashtirish va bilim darajasiga mos tanlangan mavzuni keng yoritish maqsadida materiallar tayyorlanadi va o'quvchilarning imkoniyatiga qarab, ma'lumotlar taqsimlanadi. Shunday yo'l tutish zarurki, o'quvchi mazkur tadbir bahonasi bilan u yoki bu fanga tegishli ma'lumotni o'rganib olsin.

Mazkur tadbirlarga imkoni boricha sinfning barcha o'quvchilarini jalb etish lozim, buning uchun har bir o'quvchining qiziqishlari, bilim darajasi, o'zlashtirishi, iqtidor va iste'dodlarini inobatga olish zarur. Mayli, o'quvchiga imkoniyat yaratib berish lozim, toki u ham tengdoshlari qatorida nimalarga qodir ekanligini va nimalar qo'lidan kelishini ko'rsata bilsin. Bolalar borki ko'pchilik oldida o'zining fikrini bildira olmaydi, tomoshabinning va kattalarning salobati bosadida o'zini yuqotib o'z fikri va yodlagan ma'lumotlarini ayta olmaydi. Yoki ayrim bolajonlarimiz betakror iqtidor va iste'dodga ega, bu bolalarga ham imkon berishimiz darkor. Boshqa o'quvchilarni

esa tashkiliy masalalarga band etilsa maqsadli bo'ladi. Sinf o'quvchisi mayli rasm chizsin, sahnani pardozi bilan shug'ullansin, qo'shiq aytsin, raqsga tushsin, yodlagan she'rlarini aytsin, shu bahonada undagi mahorat va iste'dod yanada rivojlanadi va sayqallanadi.

O'quv fanlarga doir o'tkaziladigan sinfdan tashqari tadbirlarga nafaqat bitta sinfdan, balki boshqa yuqori sinflardan iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qamrab olinsa, ahamiyatlidir. Chunki, kichik yoshdagi o'quvchilar yuqori sinf o'quvchilarining chiqishi va ulardagi nozik qirralarni o'ziga oladi va ularda yangi g'oyalar va yangi maqsadlar yuzaga keladi. Ana shu tariqa o'quv yili davomida tadbirlar o'tkazib borilsa, o'quvchilarning o'quv fanga doir bilimi oshadi, fanga qiziqishi paydo bo'ladi, shu bulan birga undagi iqtidor va iste'dod kamol topadi. Maktabda o'quvchilarning bilim sifati va samaradorligini oshirishda rag'batlantirishning ahamiyati beqiyosdir. O'tkazilgan tadbirda o'quvchi ozgina mehnat qildimi, albatta, unga o'z vaqtida "balli", "ofarin", "tasanno" kabi ruhlantiruvchi va iliq so'zlarni aytib, tadbirda yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarga maktab ma'muriyatining "Faxriy yorlig'i"ni tantanali ravishda topshirilsa, bolajonlarning kuchiga kuch va g'ayratiga g'ayrat qo'shadi.

O'quvchilarni tadbirlarga jalb qilish uchun har oy davomida bolalar o'rtasida turli mavzularda (oldindan tanlangan mavzular bo'yicha) tanlovlar, viktorinalar, kechalar, shoular e'lon qilib borish zarur. Otkazilgan tadbirlar orqali o'quvchilar o'quv fanlar bo'yicha kerakli bilim, malaka va tegishli axborotlarga ega bo'lishadi. Eng asosiysi shundaki, tadbirlar orqali yangi



iqtidor va iste'dod egalari kashf etiladi. Sinf rahbarlari tomonidan "O'quvchining sinfdan tashqari tadbirlardagi ishtiroki" yo'nalishi bo'yicha monitoring ishlari olib borilsa va yil yakuni bo'yicha sarhisob qilib, yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar rag'batlantirib borilsa, samarali natija berishi muqarrar. Aslida har bir insonga Alloh tomonidan bir xislat, iqtidor va iste'dod berilar ekan va agarda bolani tarbiyalash davomida tarbiyachilar tomonidan ana shu berilgan xislat va mahorat to'g'ri aniqlab to'g'ri yo'naltirilsa kelgusida o'sha o'quvchi yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishadi.

Maktabda o'quvchilarning sinfdan tashqari tadbirlarga ko'proq qamrab olish uchun eng avvalo fan o'qituvchilari, keyin esa maktab direktorining o'quv ishlari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha

o'rinbosarlari hamda sinf rahbarlari mas'uldirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning ham asosiy maqsad va vazifalari ham shunga qaratilganligi bejiz emas, albatta. Sinfdan tashqari ishlariga qamrab olishning asl maqsadi bu o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topishi, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va bolalardagi mavjud iqtidor va iste'dodlarga sayqal berishdan iboratdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, agarda fan o'qituvchilari tomonidan sinfdan tashqari tadbirlar tizimli va maqsadli o'tkazib borilsa, fanlarga doir o'quvchilarning bilim sifati va samaradorligini oshirishga erishamiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". - T.: «Ma'naviyat», 2008.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". - T.: «O'zbekiston» 2011.
3. T.: «O'zbekiston» 2011.
4. Karimov I.A. "Ma'naviy yuksalish yo'lida". - T.: «O'zbekiston», 1998 yil.
5. U. Saidov "Boshqaruv va notiqlik san'ati". - T.: «Akademiya», 2010 yil.